

BOSH MIYA NERVLARI.YUZ NERVNING AHAMIYATI

Bahriddinova Dilso'z Fazliddinovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Davolash ishi fakulteti 202-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11548644>

Mavzuning dolzarbligi. Odam organizmining tuzilishi shu qadar murakkabki, uning har bir qismi o'ziga xosdir. Shu qatorda, insonning bosh miya nervlari ham alohida ahamiyatga ega. Bosh miya nervlari 12juft bo'lib, har biri alohida ahamiyatga ega. Ularning har biri vegetativ va harakatlantiruvchi tolalardan tashkil topgan. Ularning funksiyasini bilish juda muhim hisoblanadi. Xususan yuz nervi va uning tarmoqlari alohida ahamiyatga ega. Agar bu nervlar faoliyatini, ularning funksiyasini yaxshi bilmasdan, ular ustida ish olib borsak, ularning funksiyasi buzilishi mumkin. Aynan shuning uchun bu nervlarning funksiyasini yaxshi bilish lozim.

Mavzuning maqsadi. Bosh miya nervlari va ularning faoliyatini o'rganish. Yettinchi juft yuz nervning ahamiyati va uning tarmoqlarga bo'linishi.

Tadqiqotning materiallari va uslublari. Bosh miya nervlari (nn cranialis) bosh miya asosidan chiquvchi 12 juft nervdan iborat. Ularga; nn olfactorius (hidlov nervi), nn opticus (ko'ruv nervi), nn oculomotorius(ko'zni harakatlantiruvchi nerv), nn trochlearis (g'altak nervi), nn trigeminus(uch shoxli nerv), nn abducens(uzoqlashtiruvchi nerv); nn facialis(yuz nervi), nn vestibulocochlearis(dahliz- chig'anoq nervi), nn glossopharyngeus(til-yutqin nervi), nn vagus (adashgan nerv), nn accessorius(qo'shimcha nerv), nn hypoglossus(til osti nervi). Bularning har biri bosh miya sohasidan chiqib alohida tarmoqlar beradi. Yettinchi juft yuz nervi alohida ahamiyatga ega. Bu nerv nervus facialis deb atalib 2ta nervdan tuzilgan. Harakatlantiruvchi va sezuvchi tolalardan iborat. Bubnerv 3ta tarmoq beradi. Bular, kata tosh nervi , nog'ora to'ri nervi va uzangi nervlariga bo'linadi.

Tadqiqotning natijalari. Har bir bosh miya nervi alohida ahamiyatga ega bo'lgani kabi ,yuz nervi ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Yettinchi juft bosh miyaning yuz nervi - harakatlantiruvchi va sezuvchi nerv tolalaridan tashkil topgan bo'lib, uning o'zaklari miya ko'prigi sohasida joylashgan. Chakka suyagining piramidal ichida o'z nomidagi kanal ichida joylashib, bigizsimon- so'rg'ichsimon teshik orqali tashqariga chiqadi. Kanal ichida nerv bukilma -yuz nervi tizzachasi va tizzacha tugunini hosil qiladi. Tizzacha tuguni soxta unipolyar hujayralardan iborat bo'lib, oraliq nervning sezuvchi qosmiga taaluqli bo'ladi. Yuz nervi kanali ichida nervdan quyidagi shoxlar chiqadi. Bular, katta tosh nervi, nog'ora to'ri nervi va uzangi nervlaridir. Katta tosh nervi -nervus petrosus major parasimpatik tolalardan iborat bo'lib, kanaldan o'z nomidagi tirqish orqali piramidaning oldingi yuzasiga , bu yerdan o'z nomidagi egatda yo'nalib yirtiq teshik orqali tashqariga chiqadi. Nerv simpatik nerv bilan birga qanotsimon kanalga kirib, qanotsimon kanal nervi nomini oladi va qanot -tanglay tuguniga qo'shiladi. Nog'ora to'ri nervi parasimpatik va sezuvchi tolalar bo'lib, sezuvchi tolalar tizzachali tugun soxta unipolyar hujayra o'simtalaridan iborat. Bu toshsimon-nog'ora tirqishi orqali o'tib, til nerviga qo'shiladi. Uzangi nervi esa harakatlantiruvchi shox bo'lib, nog'ora bo'shlig'ida uzangi mushagini innervatsiya qiladi. Yuz nervi bigizsimon-so'rg'ichsimon teshikdan chiqqandan keyin, yana bir qancha tarmoqlarga bo'linadi. Bular, quloq suprasining orqa nervi, ikki qorinchali shox, bigizsimon til osti mushagiga boruvchi shox. So'ng yuz nervi quloq oldi bezi ichiga kirib, uning ichida shoxlarga bo'linadi va quloq

oldi bezi chigalini hosil qiladi. Bu chigaldan chakka shoxlari, yanoq shoxlari, lunj shoxlari, pastki jag' chekkasi bo'ylab yo'na, adigan shox va bo'yin shoxlariga bo'linadi.

Xulosa. Odam organizmidagi bosh miya nervlari va ularning tarmoqlarga bo'linishi, yettinchi juft bosh miya yuz nervining ahamiyati va uning tarmoqlarga bo'linishini o'rganish.

References:

1. Abu Ali ibn Sino. 'Tib qonunlari '.
2. F.E. Ergashova.Sh.Sh.Tilloeva. D.B.Raxmatov. 'Ibn Sino Ta'limoti'.
3. <https://mymedic.uz>
4. <https://cyberleninka.ru>
5. <https://uz.m.wikipedia.org>

